

## LINGVOMADANIY BIRLIK BO‘LGAN URF-ODAT VA MAROSIMG DOIR SO‘ZLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

**Baymuradova Adiba Olimovna**

Samarqand davlat universiteti 2-kurs magistranti

[Adibaolimovna96.11@gmail.com](mailto:Adibaolimovna96.11@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning birliklari bo‘lgan urf-odat va marosimga oid so‘zlar Sirojiddin Sayyid, Muhammad Yusuf, Jamol Kamol she‘rlari orqali tavsiflangan va o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan urf-odatlarning kelib-chiqishi haqida ham mulohazalar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiya, lingvomadaniy birlik, madaniy makon, madaniy sema, urf-odat, marosim, rasm-rusm, yor-yor, to‘y, o‘lan, o‘g‘il to‘y.*

**KIRISH:** Mamlakatimiz tarixan juda qadimiy davlatlardan bo‘lib, uning o‘tmishi o‘zida juda katta madaniy merosni egallaydi. Bunday madaniy merosimiz lingvokulturologiyada lingvomadaniy birliklar deyiladi. Lingvokulturologiyada lingvomadaniy birliklarlar madaniyatning asosiy madaniy sema tashuvchilari hisoblanadi va ular madaniy makonda mavjud bo‘ladi.

Madaniy makon – madaniyat vakillari ongidagi madaniyatning mavjud bo‘lish shakli hisoblanadi.

Lingvomadaniy birlik – lisoniy belgining ma’nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo‘luvchi til birligidir. Frazeologizm, etalon, ramz, metafora, turg‘un o‘xshatish, milliy realiyalar bilan bir qatorda urf-odat va marosimga doir so‘zlar ham lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Urf-odat va marosimlarga amal qilish, shu madaniy qadriyatlarni ajdoddan avlodga yetkazish har bir o‘zbekman degan inson uchun madaniy vorislik hissini beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI:** Insoniyatning ming yillik tarixi davomida turli-tuman madaniyatlar shakllangan. Turli madaniyatlar ichida an'anaviy (arxaik) madaniyat ajralib turadi. An'anaviy madaniyat deyilganda asrlar davomida bir necha avlod vakillarining say-harakatlari bilan bir joyga to'plangan, unutilmagan urf-odatlar majmui tushuniladi. Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan bir millatning boshqa bir millatdan farqlanib turishini belgilaydi.

**NATIJALAR:** O'zbek xalqining asrlar davomida sayqal topib, xalqning hayotida ajralmas bir qism bo'lib kelayotgan urf-odatlar, ularga amal qilish, ularni ajdoddan avlodga yetkazish o'zbek millatining tashkil topishida katta o'rin tutadi. Ular xalqimizning boy madaniy merosini tashkil qiladi. Madaniy meros – madaniyat uchun ahamiyatli bo'lgan madaniy boyliklarni, informatsiyalarning berilishi. Bunday qadriyatlar, milliy an'analar madaniy universiyalar sifatida lingvokulturologiyada muhim o'rin tutadi. [5, 37]

Xalqning urf-odatlari uni xalq sifatida tanitadi. Izohli lug'atda "urf" so'ziga shunday ta'rif berilgan: "Urf – [a. e'tirof, baho berish; rasm, odat, taomil; o'rganish] Umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib-qoida; rasm, taomil. Har bir xalqning o'z urfi bor. Biz ko'pincha ajoyib, ko'rilmagan, haligacha urf bo'lmagan rango-rang gullarni dastalaganda...qaysi bog'da bitgan-u bog'boni kim? deb surishtirib o'tirmaymiz. Gazetadan." "Odat" so'zi esa shunday izohlanadi: "[ a. udum, taomil; o'rganish; malaka,odatlanish] 1. O'rganish bo'lib qolgan harakat, qiliq. 2. Ota-bobodan qolib kelayotgan va kishilarga singib ketgan yoki yangitdan singib borayotgan rasm-rusum, udum, tartib."

Marosim esa shunday izohlanadi: 1. "[a. urf-odatlat, udum] Diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in. Diniy marosim. To'y marosimi. 2. Tantanalar bilan o'tkaziladigan rasmiy yig'in. Kanalning ochilish marosimi." [4, 180] Bundan kelib chiqadiki, urf-odat marosimga qaraganda kengroq tushuncha. Chunki urf-odat xalqning hayotidagi barcha rasm-rusm, udum,

marosimlarni ham qamrab oladi. Marosimda faqatgina xalq hayotining ma'lum sohalari aks etadi. Ya'ni u maxsus kishilar tomonidan uyushtirilgan namoyishlardan iboratdir. Ya'nada tushunarli qilib izohlansa, urf-odat ma'lum muddat takrorlanib turuvchi, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidasi va urf-odatda ko'pchilik ishtirok etadi, marosimda esa faqatgina belgilangan shaxslar ishtirok eta oladi. Urf-odat muayyan xalq uchun o'zgarmas qoida bo'lsa, marosim hududiy farqlanishi mumkin. Demak, marosim urf-odatning tarkibiy qismi. "Marosim folklori" kitobida ikkisining farqi shunday farqlanadi: "Har qanday marosim urf-odat, lekin har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi." [3, 12]

**MUHOKAMA:** Ma'lumki, rasm-rusm – madaniy g'oyalar, me'yorlar, tasavvurlar, qadriyatlarni o'zida aks ettirgan jamoada ma'lum bir hissiyotlarni uyg'otadigan jamoaviy harakatlarning yig'indisi bo'lsa, urf-odat – ma'lum bir jamoada ishlab chiqilgan, o'tmishdan davom etib kelayotgan, shu jamoaning a'zolari uchun odatiy hisoblangan, insonlarning faoliyati va o'zaro munosabatini ijtimoiy-madaniy jihatdan tartibga solish shakli hisoblanadi. O'zbekning xonadonini esa to'y-tomoshasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sirojiddin Sayyidning "Bir muhabbat qissasi" she'rida o'zbekning urf-odatlari chiroyli aks etgan:

Kirib keldik, boshimizdan,  
*Onam sochdi tangalar.*  
Taomil deb, doyra chaldi,  
*O'lan aytdi yangalar.*  
Otam avval arazlab so'ng,  
Ag'dardilar ho'kizni.  
Ma'lum qilib *osh berdilar,*  
Chaqirib el-ulusni.

Urf-odatlarimizga ko'ra o'lan xalq og'zaki ijodi janri bo'lib, ayollar tomonidan childirma jo'rligida ijro etilgan. Izohli lug'atda shunday izohlangan: "O'lan – Xalq og'zaki ijodida, odatda to'y, gap-gashtak va sh.k.da ijro etiladigan ashula, qo'shiq. "O'lan aytmoq. Qora-qora qo'zilar kuyni boshlar, yor-yor. Qalam qoshli yangalar

O‘lan boshlar yor-yor.” O‘lan aytuvchi “o‘lanchi” deyiladi. O‘lan bilan birgalikda “yalla” ham ishlatilgan. Yalla – f.(yalla, yallali) – raqs bilan ijro etiladigan yengil va sho‘x qo‘shiq, ashula. Yalla qilmoq – 1) yengil va sho‘z qo‘shiq aytmoq. O‘rmonjon Qurbon ota bilan Sidiqjonni sozandalar yalla qilayotgan davradan topdi. A.Qahhor. 2) ko‘chma vaqtini o‘yin-kulgi bilan o‘tkazmoq, beg‘am va beparvo yurmoq. Yallachi – to‘y-tomoshalarda qo‘shiq aytib, o‘yinga tushib yurishni kasb qilib olgan shaxs.

O‘lan xalq og‘zaki ijodida madaniy konnotatsiyani ko‘rsatib turadi. Madaniy konnotatsiya – madaniyat kategoriyalaridagi denotativ yoki majoziy-motivlashgan ma‘no jihatlarining talqini. Madaniy konnotatsiya til belgisidagi madaniyat darajasining ko‘rsatkichini ifodalaydi. [5, 37] O‘lan yangragan ijro davomida kelin-kuyovning ustidan turli xil sochqilar, tangalar sochiladi. Buning ma‘nosi tangalar badavlat bo‘lishlari uchun chiroyli tilak bo‘lsa, shirinliklar baxtli yashashlari uchun niyatdir.

Ota uyning eshigiday eshik yo‘q,  
Olamni kez Farhodingday oshiq yo‘q.  
Bu kech toshu devorlaring sel bo‘lar,  
Bu dunyoda “*Yor-yor*”ingday qo‘shiq yo‘q.  
Mayli, 7 iqlimlarda to‘y bo‘lsin,  
Har qarich yer *o‘lan* bo‘lsin, kuy bo‘lsin.  
Olamni kez, *beahigingday beshik* yo‘q,  
Bu dunyoda “*Yor-yor*”ingday qo‘shiq yo‘q. ( S.Sayyid)

Ushbu she‘rdagi madaniy semalar yor-yor, o‘lan, beshik, to‘y orqali ifodalanmoqda. Va bu so‘zlar orqali o‘zbek xalqining milliy urf-odatlariga ishora qilinmoqda. To‘y keng ma‘noda quyidagi ma‘nolarni o‘z ichiga oladi: “To‘y – 1. Uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va b. munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar bilan o‘tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi. Nigoh to‘yi. O‘g‘il (xatna, sunnat) to‘yi. Beshik to‘yi. To‘y qilmoq. Ma‘raka mardniki, to‘y – xalqniki. Maqtanganning uyiga bor, kerilganning to‘yiga bor.

2. Qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, kuyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo, masalliq va sh.k majmui.
3. Shu narsalar yuborilishi munosabati bilan kuyov xonadonida, kelishi munosabati bilan qiz xonadonida o'tkaziladigan marosim. To'y bermoq 1) qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq belgilangan pul, sarpo, masalliq va b.ni kelin tomonga yubormoq; 2) yurtga osh, ziyofat bermoq.
4. Biror voqea-hodisaga bag'ishlab ziyofat va o'yin-kulgilar bilan o'tkaziladigan tantanalar. Hovli to'yi. Hosil to'yi. Ko'pga kelgan to'y. ko'pchilikning boshiga tushgan ish, tashvish va sh.k haqida aytiladigan ibora."

Osmon yerga engashib, bulut sog'di kun bo'yi,  
Yolg'onchi yor **to'yida**, yomg'ir yog'di kun bo'yi.  
Yomg'ir emas, bu halqob, kelinchak ko'z yoshidir,  
Yig'lama yor, qiz bola, palaxmonning toshidir. (M.Yusuf)

**Buxoroning to'yi** bo'ldi... Hasharga  
Kelgan-kelmaganning eslandi nomi.  
Lekin eslamadik Qadim shaharga,  
Birinchi tosh qo'ygan Elarlonni. (Jamol Kamol)

**Yorug' yuzim**, ko'k yorishib,  
Ketgaydir bir jilmaysang.  
Dunyolarni oqqa o'rab, qo'yganingni bilmaysan.  
Uyingda ham, to'yingda ham,  
Paykalingni o'ylaysan,  
Soddadil iymonim mening,  
Bobodehqonim mening. (M.Yusuf)  
Qismat menga  
bo'ron misol bir tulporni ep ko'rganida,  
chavandozlik shuhratini etganda ato –  
seni o'g'irlardim, olib ketardim.  
Seni o'g'irlardim qismatlaringdan

**To‘yingdan.****To‘yinga aytilgan**

“Yor-yor” lardan olib ketardim,

Seni o‘g‘irlardim hasratlaringdan. (S.Sayyid)

Shaftolilar bargidan ranglar ketar **yor-yor**,

Hovlimizda oppoq, oydin tonglar otar yor-yor,

Yoshlik ham bir **to‘y** singari, o‘tar-ketar yor-yor,

Siz kelsangiz ko‘nglimizdan zanglar ketar yor-yor.

O‘zbek xalq maqollari ichida ham to‘y haqida aytilganlari anchagina salmoqni tashkil qiladi: “ O‘lanni to‘y ko‘tarar, semizlikni qo‘y; Atala bo‘lsa ham to‘y bo‘lsin; Kelinning keldisi yaxshi, to‘yning bo‘ldisi yaxshi; Siyrak elak kunda kerak, paxta elak to‘yda kerak; To‘y ginasiz bo‘lmas; To‘y – to‘nliniki; To‘y siltovi bilan to‘n bitar; To‘yga borsang, to‘yib bor, yomonliging qo‘yib bor; To‘yga borsang burun bor, burun borsang, o‘rin bor; To‘ylikning to‘ycha tashvishi bor, uylikning uycha tashvishi bor; To‘yning bo‘ldi-bo‘ldisi qiziq; O‘g‘ilning to‘yi – o‘yin, qizning to‘yi – qiyin; Har kim to‘ygan to‘yini maqtar; Xasis to‘y qilsa, bakovul bo‘lma; Dong tortganning to‘yini ko‘r, mang urganning uyini ko‘r; Kerilganning to‘yiga bor, maqtanganning uyiga; To‘y o‘pkasiz bo‘lmas, yor – firoqsiz; Shavla ketsa qo‘lingdan, ketganiga rozi bo‘l, obro‘ qolsa o‘zingda, xursand bo‘lib to‘ylar qil; Egachili qizga to‘y qayda, echkili qo‘yga suv qayda; O‘lganiga chidasang qo‘y qil, yeganiga chidasang to‘y qil.”

O‘zbek xalqining bunday qimmatli urf-odatlar, udumlari, nigoh to‘yi, xatna to‘yi, fотиha, sovchilik, nigoh to‘yidagi urf-odatlar va to‘ydan keying urf-odatlar haqida izlanishlar olib brogan olimlar sirasiga I.Jabborov, M.Ibragimova, S.Davletova, X.Ismoilov, A.Ashirov, O.Bo‘riyevlar kiradi.

Shunday to‘ylarda ijro etiladigan milliy qadriyat va milliy udumlardan biri yor-yordir. “Yor-yor” asli xalq qo‘shig‘i. Izohli lug‘atda yor-yorga shunday ta’rif berilgan: “Kelin uzatishda ijro etiladigan, har bayti “yor-yor” iborasi bilan tugaydigan qo‘shiq nomi.”Qadimdanoq turkiy xalqlar ichida keng tarqalgan. Misralarida kelinning, shu xonadon egalarining xususiyatlari aytilib, yosh kelinga yaxshi niyatlar tilanib

qutlanadi. Yor-yorning ta'sirchanligi shundaki, unda ham mungli ohang, ham ko'tarinki ruh aks etadi.

G'ulom Mirzoning ushbu misralarida esa yor-yor har bir yoshning taqdirida bor bo'lgan marosimni ifodalamoqda:

Ibtidosi bordir olamning  
Va olamning intihosi bor.  
Shu ikki tut belanchagida,  
Ulg'aymoqda avlodim **yor-yor**.

Shoirlarning she'rlarida "yor-yor" oshiqning ohu nolasini tarannum etuvchi qo'shiq sifatida tarannum etiladi:

Hay-hay o'lan, jon o'lan,  
Jonim qaqshar **yor-yor**.  
Qayda bo'lsang sen bilan,  
Sevgim yashar, yor-yor. (M.Yusuf)

Ushbu misralarda esa Vatanning bir bo'lagi sifatida "yor-yor" tilga olinadi:

Sokingina yonayotgan gulxanlar – Vatan,  
**"Yor-yor"lar** ham o'lanlar – Vatan.

Sirojiddin Sayyidning quyidagi misralarida ota uyini ko'z yoshlar bilan tark etayotganda hatto devorlarning ham yig'lashi aks etgan:

Otangning uyida yig'lar devorlar,  
Onangning yuzida selu seborlar.  
Bunchalar munglidir nechun "*Yor-yor*"lar?  
Baxting ochildimi, xolamning qizi.

Qadimdan yor-yorlar o'zida juda katta ma'naviyatni jamlab kelmoqda. Aslida turliyo to'ylar tangriga atalgan marosimlarning yig'indisidan iborat bo'lgan. Unda kelin-kuyovlarga atalgan yor-yorlar muhim o'rin egallagan. Yor so'zi polisemantik bo'lib, dastlabki ma'nosida "jar", ya'ni to'y haqida xabar bersa, ikkinchidan, ikki yorning bir-biriga bog'lanishini anglatgan. Uchinchi ma'nosi ham bor bo'lib, bu ma'nosi "yor" so'zining qadimgi turkiylarning an'anaviy diniy e'tiqodida muqaddaslashtirilgan

so‘zlardan biri bo‘lib, shimol xalqlarining quyoshga yoki shimol yog‘dusiga sig‘inishi bilan bog‘liq hisoblangan. Tangrichilik dinida “Yor” tangrining ismlaridan biri bo‘lib, undan “yaratgan” (jaratqan), yaratuvchi (jaratuvchi) kabi teonim paydo bo‘lgan. [2] Yor-yorning mantiqiy davomi sifatida kelinlarning yuz ochdi marosimini olish mumkin. Bu qadimiy urf-odatimiz she‘riy misralarda shunday keladi:

*Yuzin ochsa kelinchaklar ayvonlarda,  
Quyosh o‘zi tushib kelar osmonlardan.  
Boj so‘raydi zulflari yuz ming jonlardan,  
Zulf ostida xollarining qorasi bor. ( S.Sayyid)*

O‘zbek oilasining asosiy o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lgan mehmondo‘stligi aynan shunday milliy urf-odatlarda ko‘rinadi. Izohli lug‘atda shunday ta‘rif berilgan: “Yuz ko‘rar marosimi – nigohning ertasi kuni ko‘rmana bilan kelin ko‘rish marosimi.” Yuz ko‘rdi – nigohning ertasi kuni ko‘rmana bilan kelin ko‘rish, shuningdek, yangi chaqaloqni ko‘rish (ko‘rsatish) marosimi.

Bu marosimda to‘ydan keyingi kun kuyov xonadoniga qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilib, o‘zlari olib kelgan sovg‘ani kelin yuzini ko‘rib berishadi. “Yuz ochdi” yana “Yuz ko‘rsatar”, “Bet ochar”, “Ro‘kushon” (t. ro‘ – yuz, kushon – ochar) deb ham ataladi. Kelinning yuzi oq ro‘mol bilan berkitilgan, uning yuzini o‘qlov yoki mevali daraxtning shoxi bilan yosh bola ochgan. Mevali daraxtning shoxidan foydalanishdan maqsad, daraxtning serpushtligi kelinga ham o‘tsin, serfarzand bo‘lsin degan yaxshi niyatning bir ko‘rinishi.

O‘zbek xalqi bola tug‘ilishi bilan turli xil marosimlarni o‘tkazadi. Ularga qulog‘iga azon aytirish, aqiqa to‘y, soch (kokil to‘yi), beshik to‘yi va yana bir eng muhimlaridan biri bu “o‘g‘il to‘yi.” Bu marosimlarda ko‘plab an‘analari saqlab qolingan.

O‘g‘il to‘yni nishonlash milliy mentalitetdan kelib chiqadi. Milliy mentalitet – millat an‘analari, madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi, turmush tarzi asosida shakllangan milliy ong va faoliyatning o‘ziga xos xarakteri. Chunki o‘zbek xalqi uchun o‘g‘il bu millatning, avlodning davomiyligi.



Do‘stlar kelib ul kun bag‘rim tilsalar,  
Bo‘g‘zim yulib, andin bir nay qilsalar.  
Hammalari qatorlashib chalsalar,  
Ovozalar bo‘lsa, **o‘g‘il to‘yingiz,**  
To‘larmidi hech to‘lmagan ko‘nglingiz. ( S.Sayyid)

O‘g‘il to‘yi madaniy an‘ana bo‘lib, toq yoshlarda, ya‘ni uch, besh, yeti, to‘qqiz yoshlarida o‘tkazilishining sababi, toq yosh bolaning umri uzoq bo‘lishi va ota-onaning xursandchiligi davomiy bo‘lsin degan niyatning ifodasi hamdir. Chunki toq narsa doimo juft bo‘lishga intiladi. Juftlikka to‘lish esa kamolot va ayni paytda intihoning ramzi hamdir. [1,82] Xatna to‘yi yana chipron to‘yi, chupron, chukron, qo‘lini halollash, musulmonlikka kirish deb ham ataladi. Xatna to‘yida to‘ybolaning ona tarafidan bobosi va buvisi bolaning otasi taraf qarindoshlarini har xil toy va sarpolar bilan siylaydi va toybola kelajakda shu yurtga xizmat qilishi, xalqning duosini olish uchun katta dasturxon yozib, doshqozonlarda osh ham tayyorlab, elga tarqatadi.

Shoira Usmonova “Lingvokulturologiya” darsligida “Madaniy an‘ana” ga shunday izoh bergan: “Jamiyatda to‘planadigan va qayta tiklanadigan ijtimoiy stereotiplashgan guruhlar tajribasini ifodalaydigan integral hodisa. Madaniy an‘analar – ijtimoiy va madaniy merosning qimmatli unsurlari majmuyi.”

**XULOSA:** Lingvokulturologiyada xalq madaniyatining tilda aks etishi muhim o‘rinda turishini oladigan bo‘lsak xalq an‘ana va qadriyatlari, udumlari, urf-odatlar chindan xalqning madaniy tafakkirini ko‘rsatib beradi. Milliy qadriyatlar – muayyan xalq, millat, elat hayoti, turmush tarzi, o‘tmishi, kelajagi, ayni vaqtdagi ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, hatti-harakatlar majmui. Shaxslar va ijtimoiy guruhlar faoliyatini tegishli me‘yorga soladigan ma‘naviy hodisa. [5,32] Har bir xalqning dunyoni anglash darajasi, uni tilda ifodalay olish imkoniyati turli xil ifoda etiladi. Aynan xalqqa xos bo‘lgan, uning an‘ana va marosimlari, urf-odatlar milliyligini yaqqol ko‘rsatadi. Milliylik esa ijtimoiy, ruhiy tafovutlarni ko‘rsatishga qaratilgan ya‘ni: Milliylik – tarixan tashkil topgan millat va elatlarni, barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, aynan

millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan farqlovchi ma'naviy, ruhiy va madaniy, ma'naviy tomondan farqlovchi o'ziga xosliklar va tafovutlar majmui. Tarix davomida yillardan yillarga o'tib shakllanib kelayotgan urf-odat, marosim va an'analarimiz xalqning o'zligini ko'rsatishga haliham xizmat qilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T.: 2017. 276-bet.
2. Bo'ronov A. Yorga yetar kun bormu, yoronlar? Maqola. Ma'naviy hayot jurnali. 2022. 3-son.
3. Sarimsoqov B. Marosim folklori. – T.: Fan, 1986. 223-bet.
4. Ўзбек тили изоҳли луғати. 1-5-томлар. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
5. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг кискача изоҳли луғати. Тошкент. Turon zamin ziyo. 2015. 44-б.